

Islamov Sohib Yaxshibekovich

Toshkent davlat agrar universiteti professori

Sultonov Xumoyun Mahmudjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tadqiqotchisi

УО‘Т:634.22

Annotatsiya. Maqolada olxo'ri navlariga turli usullarda shakl berilganda olinadigon hosildorlik bir-biridan farq qilganligi, 2021-2023 yillar davomida olxo'ri navlaridagi olingan hosildorlikidan quydagilar aniqlandi. Bunda, olxo'rining Berton Leto Chernosliv Samarqandskiy navlariga Kosasimon Avstriya butasi Siyrak yarusli hamda Kim grin butasi (KGB) usullarida shakl berishning olxo'ri tuplaridagi hosildorligi yuqori bo'lganligi qiyosiy nahlil qilingan.

Аннотация В статье выяснено, что урожайность, полученная при разной формировке сортов сливы, отличалась друг от друга, а также по урожайности сортов сливы за 2021-2023 годы. При этом проведен сравнительный анализ высокой продуктивности кустов сливы в способах формирования Бертона Лето Чернослива Самаркандинского, Чашевидного Австрийского куста, Разреженного отводка и способа зеленого куста Кима (КГБ).

Kalit so'zlar: navlari, shakl berish usullari, mevasining sifatliligi, yuqori hosildorlik darajasi.

Лючевые слова: сорта, способы формирования, качество плодов, высокий уровень продуктивности.

Jahonda olxo'ri mevalarini yetishtirish hajmi 13 mln. tonna bo'lib, 90 ga yaqin mamlakatlarda yetishtirilishi bilan danakmevalilar ichida eng yirik ishlab chiqarilayotgan mevalardan biri hisoblanadi. Olxo'ri yetishtirish bo'yicha jahonda

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Xitoy Xalq Respublikasi yetakchilik qilib, yiliga 7 mln tonna hosil oladi. Keyingi o‘rinlarda Ruminiya davlati 807 ming tonna, Chili davlati 427 ming tonna hosil oladi, O‘zbekiston Respublikasida esa yiliga 143 ming tonna olxo‘ri yetishtirilishi bilan dunyo bo‘yicha 13 o‘rinni egallaydi.

Olxo‘ri bog‘larni tashkil qilishda, daraxtlar qalin qilib ekilishi natijasida va ularni parvarishlashda yo‘l qo‘yilgan xatoliklar, jumladan noto‘g‘ri shakl berish oqibatda mevasining miqdoriga va sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish mumkin

Ilmiy tadqiqotlar Butun Rossiya meva ekinlar seleksiyasi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan “Mevalar, rezavor mevali va olxo‘ri o‘simpliklari navlarini o‘rganish usuli va dasturi” (Oryol 1999) hamda Mevali va rezavor mevali o‘simpliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi (X.Ch.Bo‘riev 2014) asosida o‘tkazildi.

Bog‘dorchilikda daraxtlardan iloji boricha yuqori sifatli va mo‘l hosil olish maqsad qilinadi. Bu masala bir tomonidan erta, o‘rta va kech hosilga kiruvchi navlarda daraxtlarni to‘g‘ri kesish va ularga shakl berish kabi agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida va samarali o‘tkazishni talab etadi

Mahalliy va chetdan keltirilgan olxo‘ri navlarida shakl berish usullarini o‘rganish bo‘yicha Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutida barpo qilingan intensiv olxo‘ri bog‘larida olib borilgan bo‘lib 5 ta shakl berish usuli va 3 ta mahalliy va introduksiya qilingan navlardan foydalanilgan.

Olxo‘ri bog‘lariga shakl barishda meva berishini yildan-yilga tartibga solish, o‘simplik hosildorligini oshiri, shakl berish va kesish orqali gektariga ko‘proq daraxt joylashtirishga ham imkon beradi, shakl berishning, mevalarni terishda mehnat unumdorligini oshirish mumkin. Meva bog‘lariga, shakl berish, kesish usullarini, yarusli, yarussiz, uzun, o‘rta,kalta, qisqartirish hamda siyraklashtirish, shakl berish va kesish ekin turi hamda naviga qarab, shakl berish. Meva bog‘lariga shakl berish bilan meva hosilga kirish muddatlarini o‘zgartiririb, hamda xosil davrini uzaytirish, bog‘larni parvarish qilish. Shakl berilganda juda serbang bo‘lib hosil shoxlari ko‘p bo‘ladi. Bu shakllar daraxtlarni zichlashtirish va yuqori meva hosili olishga imkon beradi. Meva bog‘larini tizimli kesish orqali

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

hosilni uch barovarga oshirish imkoniyatini beradi.

Tajriba natijalar shuni ko'rsatadiki, olxo'ri navlariga turli usullarda shakl berilganda olinadigon hosildorlik bir-biridan farq qilganligi aniqlandi. 2021-2023 yillar davomida olxo'ri navlaridagi olingan hosildorlikidan quydagilar aniqlandi.

Olxo'rining Berton nava shakl berilmagan nazorat variantida navida o'rtacha hosildorlik 176,6 s/ga, kosasimon usulda shakl berilganda 210,7 s/ga ni, nazoratga nisbatan 34,1 s/ga yuqori, Avstraliya butasimon usulida 220,7 s/ga ni, nazoratga nisbatan 44,1 s/ga yuqori siyrak yarusli shakl berilganda 229,1 s/ga ni nazoratga nisbatan 52,5 s/ga yuqori, va Kim grin butasimon (KGB) usulda shakl berilganda esa 240,7 s/ga ni nazoratga nisbatan 64,1 s/g yuqori bo'lganligi aniqlandi.

1-jadval

Olxo'ri navlari turli usulda shakl berilganning hosildorligi (ekish sxemasi 4x3 m) (2021-2023 y.y.)

Shakl berish usullari	Hosildorlik, s/ga			
	2021	2022	2023	o'rtacha uch yillik
Olxo'rining Berton navi				
Shakl berilmagan-nazorat	173,8	175,9	180,1	176,6
Kosasimon	207,3	209,9	214,9	210,7
Avstraliya butasimon	217,2	219,8	225,1	220,7
Siyrak yarusli	225,4	228,2	233,7	229,1
Kim grin butasimon (KGB)	236,8	239,7	245,5	240,7
Olxo'rining Leto navi				
Shakl berilmagan-nazorat	167,2	169,2	173,3	169,9

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Kosasimon	214,7	217,3	222,6	218,2
Avstraliya butasimon	212,2	214,8	220,0	215,7
Siyrak yarusli	215,6	218,2	223,5	219,1
Kim grin butasimon (KGB)	242,7	245,6	251,5	246,6

Olxo'rining Chernosliv samarkandskiy navi

Shakl berilmagan-nazorat	195,9	198,3	203,1	199,1
Kosasimon	199,2	201,6	206,4	202,4
Avstraliya butasimon	199,2	201,6	206,4	202,4
Siyrak yarusli	220,5	223,2	228,6	224,1
Kim grin butasimon (KGB)	228,7	231,5	237,0	232,4

Tajriba natijalariga ko‘ra, Leto naviga shakl berilmagan nazorat variantida o‘rtacha hosildorlik 169,9 s/ga ga ni, kosasimon usulda shakl berilganda 218,2 s/ga ni nazoratga nisbatan 48,3 s/ga yuqori, Avstraliya butasimon usulida 215,7 s/ga ni nazoratga nisbatan 45,8 s/ga yuqori siyrak yarusli shakl berilganda 219,1 s/ga ni, nazoratga nisbatan 49,2 s/ga yuqori va Kim grin butasimon (KGB) usulda shakl berilganda esa 246,6 s/ga ni, nazoratga nisbatan 76,7 s/ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

Chernosliv samarkandskiy naviga shakl berilmagan nazorat variantida o‘rtacha hosildorlik 199,1 s/ga ni, kosasimon usulda shakl berilganda 202,4 s/ga ni, nazoratga nisbatan 3,3 s/ga yuqori, Avstraliya butasimon usulida 202,4 s/ga ni, nazoratga nisbatan 3,3 s/ga yuqori, siyrak yarusli shakl berilganda 224,1 s/ga ni nazoratga nisbatan 25 s/ga yuqori, Kim grin butasimon (KGB) usulda esa 232,4 s/ga ni, nazoratga nisbatan 33,3 s/ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi(1-jadval).

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra quydagicha xulosalar olindi:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

1.Olxo‘rining shakl berilmagan tuplariga nisbatan shakl berishning barcha usullarida olxo‘ri navlari mevalarining tashqi ko‘rinishi, shakli va rangi, pishganlik darajasi, shikastlanganlik darajalariga ko‘ra mevasi xilligi navlariga ajratilgan. Shuningdek olxo‘ri navlari danagining og‘irligi va mevalarning o‘lchami bo‘yicha ham shakil berilmagan nazorat nisbatan.farqlanishi kuzatildi.

2. Shakl berish usullari orasidan Kim grin butasi (KGB) usuli barcha navlarda mevasini yirikligi, tashqi ko‘rinishi, shakli va rangi, pishganlik darajasi,ustunligi bilan yaqqol ajralib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bo‘riev X.Ch. Mevali va rezavor mevali o‘simgiliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi Toshkent 2014 y.
2. Mevachilik asoslari T.E.Ostonaqulov, S.X.Nazieva, B.X.G‘ulomov Toshkent 2010 y, 13-20 b.
3. Mirzaev M, Temirov J. Bog‘dorchilik va tokzorchilik agrotexnologiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1977. 31-35 b.
4. Rybakov A.A., Ostrouxova S.A. O‘zbekiston mevachiligi. – T.: O‘qituvchi, 1981. 300-302 b.
5. Chernovelova V.P. Proizvodstvenno biologicheskaya otsenka sortov slivy, Samarkandskoy oblasti. Avtorefarat dissertatsii za 1974 g, str 12-47
6. Programma i metodika sortoizucheniya plodovyx, yagodnyx i orexploplodnyx kultur/ pod red. Ye. N. Sedova, T.P. Ogolsovoy. – Orel : VNIISPK, 1999.–S 300-350.
7. <http://www.fao.org/faostat>